Insonning noyob ko'nikmalari va qobiliyatlari, jumladan, uning doimiy o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyati yuqori malakali, yetakchi ishlab chiqarish resursi sifatida namoyon etadi. Intellectual inson kapitaliga sarmoya kiritish resurslarini joylashtirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda ham inson kapitali ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Buning isboti sifatida mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev yosh olimlar va akademiklar bilan uchrashuv paytida so'zlagan nutqni misol keltirish mumkin: "... Bu ishlardan asosiy maqsad mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish. Xomashyo va uni qayta ishlash bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Qolaversa, ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat olish uchun ham innovatsiyalar kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo'nalishi, tayanchi bo'ladi".

Chunki inson kapitalini rivojlantirish - innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar hamda biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi.

## METODLAR

Neoklassik inson kapitali nazariyasining asoschilari Chikago universiteti professorlari Teodor Shults <sup>[1]</sup> va Gari Bekker <sup>[2]</sup> bo'lib, Shults inson kapitali g'oyasini ilgari surdi va Bekker bu g'oyani inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini asoslash hamda inson xatti-harakatlariga iqtisodiy yondashuvni shakllantirish orqali rivojlantirdi.



Ushbu nazariyaning tarixiy ildizlarini A.Smit va U.Petti, K.Marks va J.S.Mill, G.Sidjvik va A.Marshall, G.Rocher va U.Farr, E.Engel, T.Vitshteyn hamda boshqa ko'plab yirik iqtisodchilarning asarlarida topish mumkin.

A. Smitning o'z asarlarida, "foydali mehnat unumdorligini oshirish, birinchi navbatda, ishchining epchilligi va mahoratini oshirishga, keyin esa u ishlagan texnika va asboblarni yaxshilashga bog'liq" ekanligini ta'kidlagan [3].

G. Bouenning fikricha esa, inson kapitali insonlarga berilgan va ma'lum vaqt davomida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma, motivatsiya va energiyadan iborat [4].

M. Kritskiyning ta'kidlashicha, inson kapitali ijtimoiy taraqqiyot va intellektual faoliyatning yangi kuchi sifatida xo'jalik yurituvchi subyektning harakatiga asoslanadi [5].

Mazkur tadqiqot ishini olib borishda induksiya va deduksiya, taqqoslama tahlil, analiz va sintez kabi metodlardan foydalanilgan bo'lib, mazkur metodlardan foydalanish orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inson kapitali (ing. human capital) - bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko'nikmalar to'plami.

Inson kapitali aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, shu jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, tadbirkorlik qobiliyatiga, mehnatni axborot bilan ta'minlashga, samarali elitani shakllantirishga, fuqarolar va biznes xavfsizligiga, iqtisodiy erkinlikka, madaniyat, san'at va boshqa tarkibiy qismlarga investitsiyalar hisobiga shakllanadi va to'planadi. Investitsiyalar ta'lim, sog'liqni saqlash, malaka oshirish, iqtisodiy motivatsiya, geografik harakatchanlik va boshqalar tizimida inson kapitalini ishlab chiqarish uchun asos yaratadi. Ularning mazmuni nafaqat investitsiya, balki investorning haqiqiy, ongli va maqsadli faoliyatidir. Shu bilan birga, inson kapitalini yaratishda mehnat xarajatlari va o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini takomillashtirish harakatlari muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda inson kapitali nazariyasi va amaliyoti asosida AQSh va Yevropaning yetakchi mamlakatlari rivojlanish paradigmasi takomillashtirilmoqda. Inson kapitali nazariyasi asosida Shvetsiya o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qildi va 2000-yillarda jahon iqtisodiyotida yetakchilik mavqeyini tikladi. Tarixiy jihatdan qisqa vaqt ichida Finlyandiya innovatsion iqtisodiyotga o'tishga muvaffaq bo'ldi va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Inson kapitali nazariyasi va amaliyoti XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan innovatsion iqtisodiyot (bilimlar iqtisodiyoti) va venchur ilmiy-texnik biznes muammlariga javob bo'ldi.

Jahon banki, 192 mamlakatni o'rganish misolida, o'tish davri iqtisodiyotidagi o'sishning atigi 16 foizi jismoniy kapital (uskunalar, binolar va ishlab chiqarish infratuzilmasi), 20 foizi tabiiy kapital, qolgan 64 foizi inson kapitali bilan bog'liq degan xulosaga keldi. So'nggi 20 yil davomida inson kapitalining hajmi 55% ga o'sgani ma'lum bo'ldi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70% ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hisssasi 41% ga to'g'ri keladi [6].

Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, mamlakatlar o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 foizi aynan inson kapitali bilan izohlanishi [7] ma'lum bo'lmoqda.

Davlatning eng muhim vazifasi - innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosi sifatida tizimli innovatsiyalarni ta'minlash maqsadida inson kapitaliga investitsiyalarni yo'naltirish bilan bog'liq. Inson kapitali va ta'limga investitsiyalar innovatsion jarayonning asosini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotning innovatsion sektori, jamiyatning ijodiy qismi mamlakat, mintaq, tashkilotlarning rivojlantirish yo'nalishi va sur'atlarini belgilaydigan yuqori sifatli inson kapitalini to'plash manbalari hisoblanadi. Boshqa tomondan, sifatli inson kapitali innovatsion tizim va iqtisodiyotning asosidir. Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud.

Inson kapitali va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlari innovatsion axborot jamiyati va uning iqtisodiyotini shakllantirish hamda rivojlantirishning yagona jarayonini tashkil etadi. Innovatsion iqtisodiyot olimlarning g'oyalarini amalda qo'llashga va ularni innovatsion mahsulotlarda aks ettirishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion iqtisodiyot inson kapitalini to'plashga qodir va inson kapitali uning rivojlanishining asosiy omilidir. To'plangan inson kapitali bilimlar iqtisodiyotining asosiy qismi bo'lib xizmat qiladi va uning hozirgi darajasini belgilaydi. Innovatsion iqtisodiyot - bu yuqori sifatli hayot, aql, ta'lim, fan va yuqori sifatli inson kapitali iqtisodiyoti.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlarning innovatsion iqtisodiyotida inson kapitali va uning rivojlanishiga yuqori investitsiyalar kiritish yuqori sifat bilan alohida ajralib turadi.

Hozirgi kunda dunyo tajribasi va amaliyotidan ma'lum bo'lishicha, aynan inson kapitaliga investitsiya kiritishga ustuvor vazifa sifatida qaragan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi.



1-jadval: Ta'limga kiritilgan investitsiyaning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan bog'liqligi\*

Mamlakat	Ta'limning to'liq sikliga sarflangan sarmoya (dollar)	Bir xodim yaratadigan qo'shimcha qiymatning miqdori (dollar)
AQSH	231 000	3,1 mln.
Janubiy Koreya	130 000	2,1 mln.
O'zbekiston	19 000	77 ming

\*Manbaa: <https://yuz.uz/uz/news/inson-kapitaliga-etibor--asosiy-vazifa>

Agar yuqoridagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, AQSH va Janubiy Koreyada bir ishchi kuchini shakllantirishga ketgan xarajat o'zini 13-17 marta oqlagan bo'lsa, O'zbekistonda sarflangan sarmoyaning jamiyatga keltiradigan foydasi atigi 4 barobarni tashkil etadi.

2018-yilda Jahon banki tomonidan e'lon qilingan "Inson kapitali indeksi-2018" reytingida Singapur (0,88 koeffitsiyent), Yaponiya (0,84), Koreya (0,84), Gongkong (0,82) va Finlandiya (0,81) peshqadamlik qilgan. Ushbu davlatlarning intellektual salohiyati ham juda yuqori.

Umumlashtirish darajasiga qarab, inson kapitalining tarkibida quyidagi tarkibiy qismlarni belgilash mumkin: individual, jamoaviy va ijtimoiy.

Dastlabki ikkitasi mikro darajada individual shaxsning inson kapitali va ma'lum bir asosdas birlashtirilgan odamlar guruhi sifatida qaraladi hamda unga kompaniya jamoasi, ijtimoiy-madaniy guruh a'zolari va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy komponent – bu makro darajadagi inson kapitali bo'lib, u jamiyat tomonidan to'plangan barcha inson kapitalini ifodalaydi, bu esa o'z navbatida milliy boylikning bir qismi, strategik manba va iqtisodiy o'sish omilidir.

Inson kapitalini ko'paytirish uchun shaxs tomonidan ham, jamiyat tomonidan ham (davlat idoralari, xususiylar, oila va boshqalar) katta xarajatlari va turli xil resurslar talab qilinadi.

Bunday investitsiyalarning manbalari ish beruvchilarning xarajatlari, davlat budjeti xarajatlari, fuqarolarning shaxsiy xarajatlari hisoblanadi.

Inson kapitaliga sarmoya kiritish investorning o'zi uchun ham, uchinchi shaxslar uchun ham ba'zi imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, xodim uchun bu daromad darajasining oshishi, ishdan qoniqish, ish sharoitlarining yaxshilanishi, o'z-o'zini hurmat qilishning oshishi, hayot sifatining yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Ish beruvchi uchun esa, samaradorlikni oshirish, ish vaqtini yo'qotishni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, natijada firmaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Davlat uchun foydali jihati esa, bu fuqarolarning farovonligini oshirish, yalpi daromadning o'sishi, fuqarolarning iqtisodiy faolligining oshishi bo'ladi.

Investitsiyalarni amalga oshirish inson kapitalini ko'paytirishda juda muhim jarayon bo'lib, unda u obyekt, subyekt yoki ta'sir natijasi sifatida ishlaydi.

Inson kapitali rivojlanishining asosiy manbalari va katalizatorlari raqobat, investitsiyalar va innovatsiyalardir. Inson kapitaliga investitsiyalar ta'lim, ishlab chiqarish tajribasini to'plash, sog'liqni saqlash, geografik harakatchanlik, ma'lumot qidirishdir.

Ta'lim inson kapitaliga sarmoya kiritishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi, chunki u katta vaqt va xarajatlarni talab qiladi. Bekkerning so'zlariga ko'ra, ta'limga sarmoya kiritish to'g'risida qaror qabul qilishda talabalar va ularning ota-onalari bunday investitsiyalarning kutilayotgan marjinal rentabelligini muqobil investitsiyalarning rentabelligi (bank depozitlari bo'yicha foizlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividendlar va boshqalar) bilan taqqoslashadi[8]. Hozirgi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali nazariyasi tufayli ta'lim investitsiyalari oddiy investitsiyalardan kam bo'lmagan iqtisodiy o'sish manbayi sifatida ko'rila boshlandi.

Turli xil sog'liqni saqlash va ovqatlanish xizmatlari ham kapital qo'yilmalarni anglatadi, chunki ular ish haqini oshiradi, kasallanishni kamaytiradi, sog'lig'ini saqlashga va samarali hayot davomiyligini oshirishga yordam beradi.

Ishchi kuchining harakatchanligi inson kapitaliga sarmoya sifatida qaraladi, chunki kam daromadli joydan maoshi yuqori bo'lgan hududga ko'chib o'tish nafaqat daromadning oshishiga, balki inson ko'nikmalaridan yaxshiroq foydalanishga olib keladi. Ish qidirish-bu kapital qo'yilma, chunki u mehnat bozori to'g'risida ma'lumot to'plash uchun katta kuch va ma'lum xarajatlarni talab qiladi.

XX asr davomida inson kapitalining to'planishi jismoniy kapitalning to'planish tezligidan oldinda ekanligi aniqlandi. Amerikalik iqtisodchi olim E.Denison 1929-1982-yillarda AQShning iqtisodiy o'sishini tahlil qilib, mehnat unumdorligini oshirishning hal qiluvchi omili ta'lim degan xulosaga keldi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, urushdan keyingi davrda AQShda aholi daromadining 15-30 foizga o'sishi ishchi kuchining ta'lim darajasining oshishi bilan bog'liq edi [9].

Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning tajribasi shuni tasdiqlaydiki, ta'lim va sog'liqni saqlashga sarmoya kiritish, raqobatbardoshlikni yaratish inson kapitali davlatning iqtisodiy rivojlanishining eng samarali strategiyasidir.



Umumiy ishlab chiqarishda yuqori texnologiyali mahsulot ulushining doimiy o'sishi ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan malakali mutaxassislarga talabning oshishiga olib keladi. Bu jarayonda oliy ta'lim katta rol o'ynaydi. Oliy ma'lumotli odamlar kapitaldan yanada samarali foydalanadilar, innovatsiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarishning yangi, yanada rivojlangan shakllarini ixtiro qilishga moyil bo'ladi. Insonning ta'lim darajasini oshirish unga mehnat sharoitlarini yaxshilash, bo'sh vaqt va iste'molchilar tanlovini yaxshilash, jamiyatdagi obro' - e'tiborni oshirish va o'zini o'zi anglashdan qoniqish olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, odam qiziqarli va istiqbolli ishlarga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oddiy ishlaydigan bozor iqtisodiyotida ko'proq oliy ma'lumotli odamlar mehnati uchun yuqori mukofot oladilar. Ta'limning yuqori darajasi xodimni ish beruvchiga moslashtiradigan yuqori imkoniyatlardan biri bo'ladi.

Oliy ta'limning individual iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi yuqori malakali ishchilarning mehnat sifatini yaxshilash bilan bog'liq. Oliy ma'lumot shaxsni, uning tadbirkorlik qobiliyatini faollashtirishga yordam beradi. Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari yuqori ma'lumotli ishchi kuchi sifatida o'z tengdoshlariga qaraganda mehnat bozorida yaxshiroq harakat qilishadi, ish bilan ta'minlashning maqbul darajasini tanlashadi.

Oliy o'quv yurtida o'qish paytida olingan inson kapitali uning egasiga nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki insonning sifati va turmush darajasini ham o'zgartiradi. Oliy ma'lumot shaxsning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi umumiy madaniy darajani, fundamental bilimlarni, o'rganish qobiliyatini va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular asosida amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Bugungi kunda mehnat bozori kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarning keng doirasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash darajasiga nisbatan ancha yuqori talablarga ega.

Oliy ma'lumotli shaxslarning madaniy darajasi odatda yuqori bo'ladi. Madaniyat avlodlar tajribasini jamlaydi, bilim, malaka va ko'nikmalar saqlanib qoladi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilgan regulyatorlari va mehnat harakatlarini qo'llash tuzilmalari shakllanadi va rivojlanadi. Fuqarolarning madaniy darajasi asosan jamiyatning iqtisodiy yutuqlarini, uning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tuzilishini belgilaydi.

Malakali ishchi kuchini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydigan va talabalar tomonidan ta'lim xarajatlarning investitsiya xususiyatini aks ettiradigan ta'lim xizmatlari bozori faoliyati muammolari inson kapitaliga investitsiyalar bilan chambarchas bog'liq.

Ilg'or rivojlangan davlatlar yalpi milliy mahsulotning 40 foizigacha bo'lgan qismini mamlakatda samarali ta'lim tizimini rivojlantirish natijasida olindi. Ta'limga sarmoya kiritish insonning o'zi uchun ham, umuman jamiyat uchun ham foydalidir. AQSH mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, ta'lim tizimiga oqilona sarflangan 1 dollari mablag' 3-6 dollarlik samara keltiradi.

Inson kapitalining o'sishini ta'minlash orqali ta'lim xizmatlarining rivojlangan bozori mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ish beruvchi uchun oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nafaqat ishga joylashish uchun abituriyentning malakasi, balki uning qobiliyatlari, shuningdek, boshqa istalgan shaxsiy fazilatlarini ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi ikki bozor o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Mamlakatning modernizatsiya salohiyati iqtisodiy rivojlanish uchun olib borilayotgan innovatsion yondashuv bilan bog'liq. Ushbu rivojlanishning muhim jihati inson kapitalining shakllanishi, rivojlanishi va to'planishi bo'lib, uning davomida inson omili bevosita ishtirokchi va rivojlanish natijalarining asosiy iste'molchisi bo'lishi kerak. Inson kapitalini to'plashda oliy ma'lumot hal qiluvchi rollardan birini o'ynaydi.

Ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Qoida tariqasida, barcha fuqarolarga bepul o'rta ta'lim olish imkoniyati beriladi, hattoki Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya kabi ba'zi mamlakatlarda yoshlar oliy o'quv yurtlarida (davlat ta'lim muassasalarida) ham bepul ta'lim olish imkoniyatiga egadirlar. Ko'pgina mamlakatlarda talabalar uzoq muddatli imtiyozli o'quv kreditlaridan foydalanadilar.

Masalan, oliy ma'lumot pullik bo'lgan AQShda davlat universitetlari talabalarining aksariyati u yoki bu yordamni (masalan, kreditlar va grantlar) oladi, universitetlarning o'zi esa federal va mahalliy budjetlardan subsidiyalar oladi.

Inson kapitali mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq hizoblanadi. Buning ilmiy isbotini hindistonlik olim, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sohibi (1998-yil) Amartiya Sen o'z ilmiy tadqiqotlarida asoslab bergan. Uning fikricha, rivojlanish jarayoni faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi emas, balki jamiyatning har bir a'zosiga tanlov erkinligi yuqoriligini nazarda tutadigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Davlat nafaqat iste'mol tengligini, birinchi navbatda, ta'lim, sog'liqni saqlash xizmatlari, shuningdek, siyosiy va fuqarolik huquqlari sohasida teng huquqlilikni ta'minlashi kerak. Bu inson kapitalining o'sishiga xizmat qiladi [9].

Hozirgi vaqtda inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining zaiflashishi kelajakda qimmatga tushishi mumkin. Inson kapitaliga investitsiyalarning yetarli emasligi iqtisodiyotning turg'unligiga va jamiyatning ijtimoiy beqarorligiga olib keladi. Ta'lim tizimining moslashuvchan imkoniyatlari hozirgi vaqtda iqtisodiyotdagi o'zgarishlar sur'atlariga, birinchi navbatda, ma'lum mutaxassislarga bo'lgan talab konyunkturasi dinamikasiga mos kelmaydi. Ta'lim muassasalarida olingan nazariy bilimlar mutaxassislardan talab qilinadigan narsalarga mos kelmaydi. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish usullari boshqacha bo'lishi mumkin-amaliyot, malaka oshirish,





qo'shimcha ta'lim, qayta tayyorlash, o'z-o'zini tarbiyalash. Ular xarajatlarni, shu jumladan moliyaviy xarajatlarni talab qiladi va hozirgi sharoitda doimiy ravishda, ya'ni uzluksiz ta'lim rejimida amalga oshirilishi kerak.

Oliy ma'lumot nafaqat texnologik o'zgarishlar dunyosida ishlay oladigan hamda tanlov va qaror qabul qilish holatlariga duch keladigan milliy iqtisodiyot uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq, balki bu o'zlarining hayotiy manfaatlariga ta'sir qiladigan yangi ijtimoiy texnologiyalar dunyosida harakat qila oladigan va boshqa ko'plab odamlarni tayyorlash bilan ham bog'liq.

Oliy ma'lumotga ega bo'lgan kishi nafaqat mutaxassisga aylanadi, balki o'z-o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali inson kapitalini ham oshiradi. Ushbu kapital, shaxsning mulki bo'lib, ayni paytda jamoat mulki hisoblanadi.

## XULOSA

Inson kapitali zamonaviy iqtisodiyotda mamlakat milliy boyligining asosiy ulushini belgilaydi. Inson kapitalining yadrosi o'qimishli, ijodiy va tashabbuskor, yuqori darajadagi professionalikka ega insondir. Oliy ta'lim tizimi insonga zamonaviy jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan resursni beradi. Oliy ma'lumot odamlarning o'zlari tomonidan tobora ko'proq talab qilinmoqda, ular ta'lim xarajatlarni o'zlari va farzandlarining kelajagi uchun samarali sarmoya deb bilishadi. Oliy ma'lumot olish uchun so'rov va uni olish tashabbusi fuqarolarning o'zidan kelib chiqadi. Kundalik hayot darajasida odamlar ta'limning ahamiyati va foydasini juda yaxshi tushunishadi.

Oliy ma'lumot-shaxs manfaatlari va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning maxsus sohasi sifatida ishlaydi.

Rivojlanish inson kapitali, ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish, iqtisodiy rivojlanishning innovatsion turiga o'tish kelajakdagi iqtisodiy o'sishning asosi va mamlakatning xom ashyo ixtisoslashuviga haqiqiy alternativ bo'lib, bu sog'liqni saqlash, demografiya, fan, ta'lim va innovatsion faoliyat muammolarini hal qilishni o'z ichiga oladi. Mamlakatning inson kapitalini rivojlantirish va to'plashning zaruriy sharti hayotning yuqori sifatidir.

Hayot sifatini oshirish, bilimlar iqtisodiyotini, axborot jamiyatini yaratish va rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun barqaror shart-sharoitlarni yaratishda inson kapitali to'plangan mamlakatlar katta afzalliklarga ega. Ya'ni, oliy ma'lumotli, sog'lom va optimistik aholisi bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy faoliyatning barcha turlari, ta'lim, fan, menejment va boshqa sohalarda jahon darajasidagi raqobatbardosh mutaxassislarga ega mamlakatlardir.

Jamiyatda oliy ma'lumotli insonlar sonini ko'paytirish, iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirish hamda kelajakda daromadlarning pasayish xavfini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, mehnat unumdorligini oshirish va "qashshoqlik tuzog'ini" yengish imkoniyatlarini belgilaydi.

O'zbekistonda ta'lim rivojida inson kapitalining o'zni bevosita inson kapitalidan qanchalik to'liq va muvaffaqiyatli foydalanilayotganiga, uni rivojlantirishga qanchalik faol sarflanayotganiga bog'liq.

Inson kapitalining ustuvor yo'nalishlarini hamda oliy ta'lim tizimidagi kamchiliklarni inobatga olgan holda, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Oliy ta'limga qabul qilinuvchilar sonini ko'paytirish;
2. Xususiyl oliy ta'lim muassasalariga ko'proq imkoniyat yaratib berish;
3. Davlat oliy ta'lim muassasalarining sifatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalini sifat jihatdan rivojlantirish hisobiga innovatsion rivojlanish darajasini yuqoriga ko'tarish hamda iqtisodiy o'sish natijalarini taraqqiy etgan davlatlar darajasiga yetkazish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schultz T.W. The Economic Value of Education. —New York: Columbia University Press. —1963 г.
2. Капелюшников Р.И. Экономический подход Гэри Беккера к человеческому поведению// США: экономика, политика, идеология. —№11. —1993. —С. 17.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Соцэкгиз, 1956. С. 490.
4. Bowen H.R. Investment in Human Capital and Economic Growth // Perspectives on Economic Growth. N.Y., 1968.
5. Критский М.М. Человеческий капитал. —Л.: Изд-во Ленингр. унта. —1991.
6. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6.
7. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. October, Development Committee Meeting <https://www.devcommittee.org>
8. Е.В. Викторова. Высшее образование и человеческий капитал в инновационной экономике //инновации. — 2011.—№6. —С. 101.
9. Kuziboev B. et al. The Role of Renewable Energy and Human Capital in Reducing Environmental Degradation in Europe and Central Asia: Panel Quantile Regression and GMM Approach //Energies. — 2023. —Т. 16. — №. 22. —С. 7627.
10. Sherov A. B. State financing of higher education institutions in the context of the introduction of innovative economy // Central asian journal of mathematical theory and computer sciences. — 2023. — Т. 4. — №. 11. — с. 132-136.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.